

Dilafroz Yusupaliyeva

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası
professor (v.b.), siyosiy fanlar doktori (DSs)
E-mail: yusupaliyevadilafroz4@gmail.com*

MAHALLALARDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING YANGI TIZIMI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda mahallalarda madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning yangi tizimini shakllantirish jarayonidagi dolzarb muammolar tahlil qilingan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" doirasida belgilangan ustuvor vazifalar, xususan, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, raqamlashtirish hamda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, mahallalarda ma'naviy muhitni yaxshilash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, ma'naviy-ma'rifiy tizim, infratuzilma, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-ma'naviy muhit.

PROBLEMS OF FORMING A NEW SYSTEM OF ORGANIZING CULTURAL AND EDUCATIONAL WORK IN MAHALLAS

Abstract. The article analyzes the current problems in the process of forming a new system of organizing cultural and educational work in mahallas today. The priority tasks set within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and 2026 – "Year of Neighborhood Development and Society Upliftment", in particular, issues of improving mahalla infrastructure, digitalization, and ensuring the stability of the socio-spiritual environment, are highlighted. Also, proposals are made to improve the spiritual environment in mahallas.

Keywords: mahalla, spiritual and educational system, infrastructure, national values, socio-spiritual environment.

Prezidentimiz shu yil 16-fevral kuni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Ushbu tarixiy hujjat bilan Mahalla infratuzilmasini yanada takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi ham tasdiqlandi. Mazkur dasturlar ilg‘or xorijiy tajriba, zamonaviy boshqaruv standartlari va milliy taraqqiyot ehtiyojlari asosida mutlaqo yangi yondashuv ruhida ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir. Ularda davlat siyosatining joriy yil uchun belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlari, aniq maqsadli ko‘rsatkichlari va ularga erishishning puxta o‘ylangan mexanizmlari mujassam. Eng muhimi, ushbu hujjatlar mahallaga shunchaki ijtimoiy institut sifatida emas, balki taraqqiyotning tayanch nuqtasi sifatida qaralayotganidan dalolat.

Bugun mamlakatimizdagi islohotlar markazida inson manfaati, farovon hayoti va munosib turmush sharoiti turibdi. Shu ma’noda, Mahalla infratuzilmasini yanada takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish bo‘yicha ustuvor islohotlar dasturi joylarda muammolarni kutmasdan hal etadigan, taraqqiyotni mahallaning o‘zida boshlaydigan yangi boshqaruv modeliga o‘tishning amaliy ifodasidir. Mahallaning iqtisodiy qudrati oshmas ekan, ijtimoiy barqarorligi va aholi farovonligini ta’minlash mushkul. Shu bois, dasturda mahallada sanoat va xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish belgilanib, uni mahallaning haqiqiy taraqqiyot nuqtasiga aylantirishga qaratilgan strategik qadam sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Shu bilan birga, mahallaning iqtisodiy qudrati va infratuzilmasini yuksaltirishdan ko‘zlangan pirovard maqsad hududda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni qaror toptirishdir. Zero, zamonaviy qiyofa kasb etayotgan va iqtisodiy jihatdan mustaqil mahalla aholisining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham shunga mutanosib ravishda yuksalib borishi shart. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ma’rifiy islohotlar mahalladagi yangi boshqaruv modelining ma’naviy asosi bo‘lib xizmat qiladi va har bir fuqaroda islohotlarga daxldorlik hissini

uyg'otish orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydi. Shuni alohida aytish mumkinki, mahallada madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning yangi tizimi faqatgina tadbirlar majmuasi emas, milliy yuksalishning hayotiy ehtiyojidir. Iqtisodiy farovonlik ma'naviy yetuklik bilan uyg'unlashgan taqdirdagina mahalla chinakam "taraqqiyotning tayanch nuqtasi"ga aylanadi. Farmon doirasida belgilangan keng ko'lamli vazifalarning hayotga tatbiq etilishi har bir mahallani nafaqat obod maskan, balki milliy qadriyatlar va ma'rifat o'chog'i sifatida xalqimizga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan. Bu borada mahallani aholi va davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'prik"ka aylantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Ayniqsa, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida mahallalarda madaniy-ma'rifiy muhitni sog'lomlashtirishning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish zarurati tug'ilmoqda. Biroq, ushbu tizimni to'liq joriy etish yo'lida bir qator tizimli muammolar va hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar mavjud.

Avvalo, mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Strategiyada aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag'larni 24 trillion so'mga yetkazish hamda mahallalardagi muammolarni hal etish uchun mablag'larni 3 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan. Bu mablag'larning aynan madaniyat o'choqlari, kutubxonalar va ma'rifat maskanlarini tiklashga yo'naltirilishi "ma'naviyat soati" kabi tadbirlarning quruq hisobot uchun emas, balki amaliy natija uchun xizmat qilishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, mahallalardagi ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni raqamlashtirish darajasining pastligi. Hozirgi axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar davrida an'anaviy targ'ibot usullari kutilgan natijani bermayapti. Mahallalarda aholi bilan ishlash jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish va "elektron xizmat nuqtalari"ni ishga tushirish orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish, yoshlarga milliy qadriyatlarni zamonaviy media formatlarda

yetkazish imkoniyati kengayadi. Raqamli platformalar orqali mahalla aholisining ijtimoiy-ma'naviy holatini sotsiologik tadqiq etish esa muammolarga aniq tashxis qo'yish imkonini beradi.

Shuningdek, maktab, oila va mahalla hamkorligining uzviyligini ta'minlashda hanuzgacha uzilishlar kuzatilmoqda. Strategiyada maktablarni chinakam madaniyat o'chog'iga aylantirish va ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish vazifasi qo'yilgan. Bu degani, mahalla faollari va nuroniylar maktab hayotida shunchaki mehmon emas, tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi lozim. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylashda yangi yondashuvlar, masalan, "Mahalla o'tmishi – kelajak poydevori" kabi ko'rik-tanlovlar va jonli muloqotlarni ko'paytirish zarur.

Mahallalarda madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning yangi tizimi faqatgina tashkiliy masalalardan iborat emas. Bu tizim aholi farovonligini ta'minlash bilan birga, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni saqlashning kafolatidir. Strategiyada belgilanganidek, mahallalarga berilayotgan keng moliyaviy imkoniyatlar va raqamli texnologiyalar ma'rifiy ishlarning mazmunini tubdan o'zgartirishi, milliy g'oya atrofida xalqning jipslashuviga xizmat qilishi lozim. 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mahalla institutiga davlat e'tiborining yangi bosqichiga ishoradir. Bu nafaqat mahalla tizimini yanada mustahkamlash, infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, balki mahallaning ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat dasturlarini amalga oshirishni anglatadi. Ushbu tashabbus mahallani mamlakatning butun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziga qo'yishga qaratilgan. Zero, mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz ham shunday namoyon bo'ladi. E'tiborlisi, joriy yil ushbu yo'lda juda katta maqsad va rejalar belgilanmoqdaki, ularning ro'yobi, shubhasiz, mahallalarni mamlakatimiz taraqqiyotining tayanch bo'g'iniga aylantiradi [2].

Masalan, Prezidentimiz raisligida 23-yanvar kuni kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan

asosiy vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida joriy yil uchun 1 million nafar aholini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish, kambag'allikdan xoli mahallalarning sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag'allik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifalari belgilandi. Yoki 2026-yilga mo'ljallangan Davlat dasturi loyihasini olaylik. Bunga doir Prezident farmoni loyihasida qayd etilganidek, joriy yil birgina mahallani rivojlan tirish yo'nalishi bo'yicha mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish orqali qo'shimcha 100 mingta yangi ish o'rini yaratish, mahallalar infratuzilmasini takomillashtirishga 20 trillion so'm mablag' yo'naltirib, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish, mahallalardagi muammolarni bir vaqtning o'zida tezkor hal etishda barcha davlat organlariga mas'uliyatni yuklab, ijroni 7/24 rejimda onlayn nazorat qilish amaliyotini yo'lga qo'yish kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilmoqda. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Demakki, mahalla jamiyatning eng asosiy poydevori. Bu – mahalla darajasida gi barqarorlik va ijtimoiy ahillik, umummilliy barqarorlikning garovi ekanini anglatadi. Mahalladagi ijobiy muhit aholi farovonligini ta'minlashga, ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tab, davlat siyosatining bevosita aholiga yetib borishini ta'minlaydi.

Bu yerda odamlar bir-birini yaxshi taniydi, qiyinchilikda yordam beradi, umumiy muammolarni birgalikda hal qiladi. Mahallaning an'anaviy tuzilmalari, qariyalar kengashlari, xotin-qizlar qo'mitalari va yoshlar yetakchilari orqali jamoaviy qarorlar qabul qilinadi, nizolar tinch yo'l bilan hal etiladi va jamoat tartibi saqlanadi. Bularning barchasi aholi o'rtasidagi o'zaro ishonch va birdamlikni mustahkamlab, ijtimoiy kapitalni boyitadi.

Azaldan mahalla instituti yurtimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayot, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar – do'stona qo'shnichilik va o'zaro hurmat, mehr-oqibat, yordamga muhtoj insonlarga g'amxo'rlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga

zalvorli hissa qo'shib keladi. Mahalla instituti chet el tajribasini andoza qila olmaydigan yagona tizimdir. Buni xorijlik ekspertlar ham e'tirof etib, uni o'rganish kerakligini ta'kidlaydi [3]. Mahallani rivojlantirish orqali jamiyatni yuksaltirishga qaratilgan ushbu yangi boshqaruv modeli Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi. Binobarin, mahallaning an'anaviy qadriyatlari zamonaviy boshqaruv standartlari bilan uyg'unlashgan taqdirdagina, biz ko'zlagan umummilliy barqarorlik va ma'rifiy yuksalishga erishish mumkin bo'ladi.

Avvalo, mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda "qog'ozbozlik" va balandparvoz tadbirlardan voz kechib, har bir mahalla uchun uning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda "ma'naviy portret" (yoki xarita) ishlab chiqish lozim. Bunda hududdagi ajrimlar soni, ishsizlar qatlami va yoshlar qiziqishlari sotsiologik tadqiqotlar orqali o'rganilib, tadbirlar rejasi umumiy emas, "og'riqli nuqtalar"ga qaratilishi kerak. Shuningdek, mahalla kutubxonalari va ma'naviyat xonalarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlash, aholi, ayniqsa yoshlar uchun qiziqarli bo'lgan intellektual o'yinlar, media-loyihalar va "mahorat darslari"ni yo'lga qo'yish orqali mahallani chinakam madaniyat o'chog'iga aylantirish zarur. Mahallalarda madaniy-ma'rifiy jarayonlarni jonlantirish maqsadida "Mahalla san'at festivallari" va hududiy madaniy tanlovlarni tizimli yo'lga qo'yish lozim. Bunday festivallar iste'dodli yoshlarni kashf qilib, mahalla ahlining o'zaro birdamligini kuchaytiradigan ijtimoiy omil bo'ladi. Tanlovlarni shunchaki rasmiyatchilik uchun emas, balki jonli ijro, milliy folklor va zamonaviy san'at yo'nalishlarida tashkil etish, g'oliblarni mahalla jamg'armasi hisobidan rag'batlantirish tizimini joriy etish zarur. Jamiyatning asosi bo'lgan xotin-qizlarni san'at va madaniy hayotga keng jalb etish masalasiga alohida urg'u berish joiz. Mahallalarda faoliyat yuritayotgan "Ayollar daftari"dagi xotin-qizlar uchun tikuvchilik yoki hunarmandchilik bilan bir qatorda, amaliy san'at, rassomchilik, zardo'zlik va milliy qo'shiqchilik to'garaklarini bepul tashkil etish kerak.

Xotin-qizlarning san'at orqali o'zini namoyon qilishi ularning ruhiy salomatligini yaxshilash bilan birga, oilalarda sog'lom ma'naviy muhit

shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mahallalardagi bo'sh turgan bino va inshootlarda "Xotin-qizlar ijodiyot markazlari"ni tashkil etish orqali ularni ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantirish milliy strategiyamizdagi eng oqilona yo'llardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Quronboyev Q. Mahalla – Yangi O'zbekistonning yuragi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 33-son. – Toshkent: Sharq, 2026.*
2. *Saifnazarov I. Mahalla – o'zbek jamiyatining tarixiy merosi, tinchlik va taraqqiyot poydevori. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 17-son. – Toshkent: Sharq, 2026.*
3. *Musurmanova O., Norqulov H., Abdurahimova F. Mahallalarda oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari. – Toshkent: Mahalla va oila, 2023. – 116 b.*